

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 545

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 548

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 552

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 557

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 561

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 569

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari 572

FALSAFA**A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 579

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 583

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 588

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 593

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 597

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 602

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 606

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 610

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 614

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 618

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 625

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 631

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 635

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 638

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 643

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 648



УО'К: 316.6:159.92:17

JAMIYAT VA SHAXS RIVOJIDA QADRIYATLARNING O'RNI

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ОБЩЕСТВЕ И ЛИЧНОСТНОМ РАЗВИТИИ

THE ROLE OF VALUES IN SOCIETY AND PERSONAL DEVELOPMENT

Sayitxonov Akmalxon Axatjonovich

Farg'onan davlat universiteti, f.f.b.f. doktori (PhD)

Annotatsiya

Milliy qadriyatlarning umuminsoniy negizlari, tamoyillari, ularning jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi ahamiyati, milliy o'zlikni anglashda namoyon bo'lish jarayonlari, qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar milliy o'zlikni anglashda o'rni ko'rsatib beriladi.

Аннотация

Универсальные основы и принципы национальных ценностей, их значение в развитии общества и личности, процессы проявления в реализации национального самосознания, воспитания совершенного человека, основанного на ценностях материальных, духовных, социально-политических, нравственных будут показаны ценности в реализации национальной идентичности.

Abstract

The universal foundations and principles of national values, their importance in the development of society and the individual, the processes of manifestation in the realization of national identity, the upbringing of a perfect person based on values, material, spiritual, socio-political, moral values in the realization of national identity will be shown

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy va umuminsoniy qadriyat, shaxs, o'zlikni anglash, jamiyat, milliy g'oya, millat ruhi, degumanizatsiya, empatiya.

Ключевые слова: ценность, национальная и общечеловеческая ценность, личность, самосознание, общество, национальная идея, национальный дух, дегуманизация, сопререживание.

Key words: value, national and universal value, individual, self-awareness, society, national idea, national spirit, dehumanization, empathy.

KIRISH

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda ma'nnaviy yuksalish jarayonlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarda har tomonlama etuk barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqni mana shunday ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar eng, avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratib, umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma'nnaviy omillar yig'indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlardan andisha, sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakkalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-qonimizga singib ketgan. Darhaqiqat, o'zbek xalqi milliy, ma'nnaviy qadriyatlar va axloq- odobga bag'ishlangan maxsus teran ta'limotlarning merosxo'ridir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-xaqoyiq" asarlari, Kaykovusning "Qobusnama", Burhoniddin Marg'oniyning etti kitobdan iborat "Hidoya" [2.326], Husayn Voiz Koshi fiyning "Axloqi Muhsiniv" [3.28] nomli odob-axloq me'yorlarini batafsil yoritib bergen asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotmagan.

FALSAFA

B. Ziyomuhhammadov o'zining "Komillikka eltuvchi kitob" [4.73] asarida "Qadriyat" so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlarini qadriyat deyliladi. "Moddiy qadriyatlar – kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o'ziga xos xususiyati va shakllariga ko'ra odamlarda alohida his-tuyg'u uyg'otuvchi moddiy narsalarga aytildi. Ularga buyuk inshootlar, bog' va xiyobonlar, antiqa uyro'zg'or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo'lgan uy anjomlari, qurol-yarog', oziq-ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga o'xshash narsalar kiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonda ma'naviy yuksalishni ta'minlash, yosh avlodni madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lif-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Jamoatchilik fikri aqliy, hissiy va irodaviy jihatlarni uzviy birlikda ifodalaydi va turli tarzda namoyon bo'ladi. Birinchidan, voqealarga ma'naviy munosabat sifatida. "Bunda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarni baholovchi fikrlar keng jamoatchilik tomonidan biror-bir tarzda e'tirof etiladi. Ikkinchidan, g'oyaviy, amaliy munosabat sifatida. Unda hissiy va irodaviy istaklar, intilish va niyatlar ommalashadi, jamoatchilikni amaliy faoliyatga undaydi hamda harakatlantiradi. Jamoatchilik fikrining ko'pchilikka tayanishi uning ta'sir kuchini belgilab beradi. O'z-o'zidan ildiz otayotgan tahdid va illatlarga barham berilishiga erishiladi". [1.4]

Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-onasi va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, mas'uliyatli va sog'lom kishilarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikka erishadi. Uning ma'naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqealarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog'liq. Shunday ekan, ta'lif tizimi va mahallada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma'naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, "Avesto" dagi "Ezgu fikr – ezgu so'z – ezgu amal" g'oyasi bo'yicha fikr yuritish; Qur'oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma'naviy-ma'rifiy o'gitlar yoshlar ongida ruhiy poklik, e'tiqod tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qadriyatlar – umumbashariy, milliy va shaxsiy bo'lishi mumkin:

1) Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir;

2) Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analar, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir;

3) "Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir" [5.509].

X.Qodirova o'zining "Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi o'rni" nomli maqolasida: "O'zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bulaming biri ikkinchisini inkor etmaydi. Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat, deb quyidagilarni sanaydi:

1. "Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi;
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr – do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash;
3. Oila, mahalla, el-yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;
4. Ota-onasi, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e'tibor ko'rsatish, butun jamiyatni hurmat qilish;
5. Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uyg'otish, uni sevish;
6. Kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e'tibor, degan qoidaga amal qilish;
7. Ayol zotiga ehtirom ko'rsatish, ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli bo'lgan ayolni qadrlash;
8. Sabr-toqat va mehnatsevarlik;

9. Halollik, mehr-oqibat" [6. 13]ni nazarda tutadi.

Milliy qadriyat ozod shaxsni ulug'laydi, o'z millatiga xos fikr yuritishni targ'ib etadi, ilg'or umumbashariy g'oyalarga suyangan holda uni amalga oshirishga undaydi. Milliy qadriyat millat taraqqiyotini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Millatning mustaqilligi, ozodligi, erkinligi, uning o'ziga xosligini esa faqat milliy qadriyatga hamda ularning moddiy-ma'naviy kuchga aylanishi natijasida ta'minlash mumkin bo'ladi.

"Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'tasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi" [7. 279], "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdag'i voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlataladigan tushuncha" [8.707]. "Qadriyat – vogelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha", [9.509] - degan ta'riflar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlardan bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Keyingi vaqtarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Ma'lumki, qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo'sada, qadriyatlarning eng oliysi insonning o'zi, hayoti, huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushi hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar pirovardo milliy qadriyatlarmiz anchagina tiklandi va rivojlandi. Ammo, erishilgan yutuqlar qatori jamiyatdagi yoshlarning ayrim qismida mavjud bo'lgan, ba'zan yangidan paydo bo'layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabati, o'sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan keng qamrovli yondashuvi xavotirli. Hozirgi kunda ba'zi yoshi ulug' insonlar yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o'zgarishlarga nisbatan "zamon o'zgardi, yoshlar ham o'zgardida" yoki milliy qadriyatlarning toptalishini "tabiiy jarayon" sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ziyoliy qatlama tashvish tug'diradi.

Davlatimiz rahbarining "Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'lyapti? Ba'zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'sada, haqiqat", – degan fikrlari ham bejiz emas [10.486]. Jamitimidza uchrayotgan bunday illatlar, jamiyat va millatning kelajagi haqida qayg'uruvchi har qanday kishini beixtiyor o'yga toldiradi. Xo'sh, o'smirlar ota-onalari, maktab, mahallaning qurshovida, e'tiborida bo'sada, bunday guruhlarga qanday qo'shilmoqdalar? Ma'lumki, inson huquqbazarlik yo'liga jamiyat, oila, maktab bilan uzviy aloqaning uzilishi tufayli kiradi.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish davrida insonlarning dunyoqarashi o'zgarmoqda, qadriyatlar transformatsiyasi yuz bermoqda. Bular "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalalarini tarqatish, kerak bo'sa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzinining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Degumanizatsiya hodisasi barcha jamiyatlarda – xoh demokratik, xoh nodemokratik bo'lsin – uchraydi. Insonlar o'tasida farqlilik bor ekan, o'sha farqlarni bo'rttirib, bundan foydalananiganlar doim topiladi. Degumanizatsiya xurujini kamaytiradigan eng yaxshi yo'l turli millat, din, irq, madaniyat vakillari o'tasida muloqotning doimiy bo'lib turishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlanishidir. Milliy qadriyatlarni qadrlagan holda hayot kechirish insonlarda qandaydir empatiyani paydo qiladi. O'z-o'zini anglash milliy qadriyatning ildizlarini anglash asosida yuzaga keladi. Bu nafaqat ma'lum bir millatga mansublik, balki umuminsoniy mohiyatni anglash, shuningdek, muayyan mamlakat yoki davlatga bog'liqliq tuyg'usini kuchaytirishga yordam beradi. Shaxsning o'z-o'zini anglashi va ma'naviy yuksalishida milliy qadriyatlarni asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning o'z-o'zidan begonalashishi, aksinchaligi, pirovard natijada ma'naviy qashshoqlikka olib keladi va uning ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir qiladi. Milliy o'zlikni anglash va shaxsning ma'naviyati dialektik munosabatda rivojlanadi.

FALSAFA

XULOSA

Ma'nnaviy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma'noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lsa, tor ma'noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarning ta'sir kuchi, shaxsning milliy o'z-o'zini anglashi, uning milliy manfaatlarini anglashi va o'zini millatning faol vakili sifatida idrok etishi, erishgan yutuqlari bilan faxrlanishida namoyon bo'ladi.

Bugungi innovations texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya olgan odamgina inson qadrini biliishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi va mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rın egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

O'zbekistonda bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasi oila, mahalla va ta'lim muassasi ijtimoiy, ma'nnaviy-ma'rifiy hamkorligining bosh, ustuvor masalasi hisoblanadi. Mamlakatimizning dunyodagi o'rni, darajasini belgilovchi omillardan biri bu ma'nnaviyatdir. Buning uchun milliy qadryat tushunchasini keng yoritish, ijtimoiy hayotda qo'llash va fuqarolar ongi va qalbiga singdirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqot instituti. "Inson qadrini yuksaltirishda jamoatchilik fikri". Uslubiy qo'llanma. Usmon Nosir media nashriyoti Toshkent – 2023.
2. Marg'inoni B. "Al-Hidoya", 1-jild. T; 2001; Yana qarang "Hidoya", O'zME, 11-jild.T; 2005.
3. Koshifiy V.H. Axloqi Muhsiniy. – T; O'zME, 2010.
4. Ziyomuhhammadov B. Komillikkha eltuvchi kitob. – T; "TURON-IQBOL" nashri-yoti, 2006.
5. Tarbiya ensiklopediyasi. –T; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010.
6. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. №2-son.2006.
7. Mustaqillik izohli ilmiy-omrabop lug'ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). – T; Sharq, 1998.
8. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". T; 2010.
9. Tarbiya ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010.
10. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.